PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

(Qashqadaryo viloyati misolida)

Sultonov Sirojiddin Normurodovich (dotsent v.b)

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi shahar

“Iqtisodiyot” kafedrasi

ORCID: 0009-0008-3433-6107

E-mail:aligart-8300@mail.ru

Annotatsiya. *Bozor o‘zgarishidan so‘ng ushbu sanoat kapital aylanmasining yuqoriligi, resurs salohiyatidan samarali foydalanish va zarur mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga milliy iqtisodiyotning bozor sharoitlariga eng moslashgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Aholining sifatli va zamonaviy kiyim-kechak hamda poyabzalga bo‘lgan ehtiyoji ushbu tarmoq rivojiga turtki bermoqda.*

Tayanch so‘zlar: *1,klaster, paxta-to‘machilik klasterlari 2, tikuv-trikotaj sanoati 3, raqobatbardoshlik 4, eksport salohiyati 5.*

Аннотация. *После трансформации рынка эта отрасль стала одним из наиболее адаптированных к рыночным условиям секторов национальной экономики благодаря высокой оборачиваемости капитала, эффективному использованию ресурсного потенциала и производству необходимой продукции. Потребность населения в высококачественной и современной одежде и обуви стимулирует развитие этого сектора.*

Ключевые слова: *кластер 1, хлопково-конопляные кластеры 2, швейная и трикотажная промышленность 3, конкурентоспособность4, экспортный потенциал 5.*

Abstract. *After the market transformation, this industry has become one of the most market-adapted sectors of the national economy due to its high capital turnover, efficient use of resource potential, and production of necessary products. The*

population's need for high-quality and modern clothing and footwear is driving the development of this sector.

Key words: *cluster 1, cotton-hemp clusters 2, garment and knitwear industry 3, competitiveness 4,export potential 5.*

KIRISH.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash hamda innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda klasterlashuv muhim iqtisodiy model sifatida qaraladi. Klasterlashuv iqtisodiy faoliyatning turli subyektlarini yagona tizim doirasida birlashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada korxonalar o‘rtasida kooperatsiya va integratsiya jarayonlari kuchayib, ishlab chiqarish samaradorligi hamda mahsulot sifati sezilarli darajada oshadi.

Klaster tizimi korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta’lim tashkilotlari hamda infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali iqtisodiy o‘sish uchun qulay muhit yaratadi. Bunday hamkorlik natijasida ilmiy ishlanmalar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkor joriy etish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, klaster tizimi ishlab chiqarish jarayonlarida axborot va tajriba almashinuvi jarayonlarini jadallashtirib, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi [1,3].

O‘zbekiston iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik tarmog‘i muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. So‘nggi yillarda ushbu tarmoqda klaster tizimining joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash, qo‘shimcha qiymat zanjirini kengaytirish hamda investitsiya jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilmoqda.

MATERIALLAR VA USULLAR

Klasterlashuv nazariyasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, M. Porter

klasterlarni hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiruvchi hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim iqtisodiy model sifatida ta’riflaydi.

Chandler va Tilles tadqiqotlarida korporativ boshqaruv hamda strategik rejalashtirish tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri keng yoritilgan. Ularning fikricha, investitsiya faoliyatini samarali boshqarish korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy-tizimli tahlil, statistik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish, induksiya hamda deduksiya, shuningdek iqtisodiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Agrarindustrial ishlab chiqarishga asoslangan respublikamizning qishloq xo‘jaligida chuqur qayta ishlashni va sanoatni rivojlantirmasdan iqtisodiyotimiz ko‘rsatkichlarini yuqori ko‘tarib bo‘lmaydi. Bu jihat Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarida alohida ahamiyat kasb etgan.

Iqtisodiyotda yangicha, zamonaviy yondashuvlarni joriy etmasdan turib raqobatbardosh mahsulot yaratish mumkin emasligini ta’kidlashimiz zarur.

Taraqqiyot-innovatsiyani talab etadi. “Paxta-to‘qimachilik klasteri”- ulkan iqtisodiy loyiha bo‘lib, uni shakllantirishdan maqsad- shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan ta’lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg’unlashtirish- innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘nalishtirishdan iboratdir.

Klaster qo‘shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini (fermerlar, qayta ishlash korxonalari, eksport qiluvchilar) bir maqsad yo‘lida birlashtirgan korxonalar guruhidir.

Uning maqsadi:

Mahsulot yetishtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali agrotexnik tadbirlarni yangilash, hosildorlikni bir necha barobar oshirish.

Mahsulot ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish va tayyor mahsulotlar eksporti.

Kamroq bilan ko‘proq ishlang. Ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvolini yaxshilash.

Ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnik bazasini zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikasi va uskunalari bilan boyitish.

Respublika to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o‘sish sur'atlarini ta'minlash, to‘g'ridan-to‘g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o‘rinlarini yaratish, korxonalarni texnik va texnologik yangilash, ilg'or «klaster modeli»ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, respublikada 20 ta maxsus iqtisodiy zona (keyingi o‘rinlarda-MIZ), 116 ta kichik sanoat zonalari direksiyasi (keyingi o‘rinlarda-KSZ), 12 ta texnopark va 440 ta klaster mavjud bo‘lib, ular tarkibiga: MIZ-512 ta korxona, 1865 ta MIZ kiradi., texnoparklar-58 va klasterlar-446 ta korxona.Respublikada faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlar viloyatlar kesimida 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval 2022-2025 yilda faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlar viloyat bo‘yicha soni

№	Hudud nomi	Paxta-to‘qimachilik klasterlari	Paxta maydoni,ga
1	Qoraqalpog’iston Respublikasi	11	86791
2	Andijon viloyati	15	78991
3	Buxoro viloyati	11	99220

4	Jizzax viloyati	6	77900
5	Qashqadaryo viloyati	18	136036
6	Navoiy viloyati	4	31655
7	Namangan viloyati	7	63406
8	Samarqand viloyati	11	75356
9	Surxondaryo viloyati	11	72370
10	Sirdaryo viloyati	9	75500
11	Farg'ona viloyati	13	82080
12	Toshkent viloyati	6	72161
13	Xorazm viloyati	12	82757
	Jami:	**134**	**1034223**

Manba:stat.uz

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko‘paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2020 yil 22 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Paxta-tao‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida” qabul qilingan Qarori sohada faoliyat yuritayotgan klasterlarni rivojlantirishga muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Bu Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkilotchilarining “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasini tashkil etish hamda uyushma tuzilmasida tizimli muammolarni bartaraf etish, marketing innovatsiyalarini faol joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda tarmoqni

rivojlantirishning istiqbolli va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashni ta’minlovchi maslahat organi-Paxta-to‘qimachilik klasterlari kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanishi asosida Kengashning tashkil etilishi klasterlar manfaatlarini davlar miqyosida himoya qilish darajasiga chiqardi.

Klasterlar uch tomonlama kelishuv doirasida Qishloq xo‘jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlarining qarorlari asosida ish boshlaydi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tugatilib, klaster faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan arizachilar ochiq va shaffof onlayn tanlov asosida tanlab olinadi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi klasterlar reestrini yuritadi va uni muntazam ravishda o‘z veb-saytida e’lon qiladi. Vazirlikka faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari tizimi asosida klasterlar reytingini shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Sanoatni raqamlashtirish uchun “e-urug” platformasi 2025-yil oxirigacha ishga tushirildi. Bu urug‘chilik korxonalari va fermer xo‘jaliklarining o‘zaro integratsiyalashuvi, urug‘lik ta’minoti va zaxiralari, ularning hududlarga mosligi, agrotexnologiyasi, nav va duragaylar uchun urug‘larni erkin va shaffof joylashtirish, qayta taqsimlash va sertifikatlash to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengroq va samaraliroq tashkil etish loyihalarini amalga oshirish hamda davlatimiz tomonidan tartibga solish mexanizmlarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali yurtimizni ravnaq toptirish va xalqimizni farovonligini oshirish bo‘yicha yangi yangi yutuqlarga erishishimiz mumkinligini aytishimiz joiz.

XULOSA

Klasterlarda investitsiya faoliyatini samarali boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki investitsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni ta’minlaydi. Ayniqsa, paxta-to‘qimachilik

klasterlari kabi ko‘p bosqichli ishlab chiqarish tizimlarida investitsiya faoliyatini puxta tashkil etish butun ishlab chiqarish zanjirining samarali ishlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Investitsiya jarayonlarini ilmiy asosda rejalashtirish klasterlar faoliyatida resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Bunda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi, kutilayotgan daromadlilik darajasi, kapitalning qaytish muddati hamda moliyaviy risklar chuqur tahlil qilinadi. Natijada kapital qo‘yilmalarni eng istiqbolli va samarali yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, kapital qo‘yilmalarni samarali taqsimlash ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa klaster subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Указ Президента Республики Узбекистан, от 10.01.2023 г. № УП-2 «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему повышению экспортного потенциала сферы»

2.Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 397 «Омерах по дальнейшему развитию хлопкового текстильного производства»22 июня 2020 г

3.Qosimov S., Abdullayev M. (2020). Agrosanoat majmuasida klaster tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

4.Yusupov M. (2019). O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya.

5.Казакова Н.А. (2018). Стратегический менеджмент. – Москва: ИНФРА-М. – 320 с.

6.Chandler A.D. (1962). Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. – Cambridge, MA: MIT Press.

7.Tilles S. (1964). Strategic Planning in the Multidivisional Company. – Boston: Harvard Business School Press.

8.Сейтниязов, С. П. (2020). Агропромышленный кластер и особенности регионального развития. In *Экономический рост: управление и организация* (pp. 75-77).

9.Система экономических отношений в налаживании деятельности дополнительных отраслей в фермерских хозяйствах Форум молодых ученых 4(68) 2022 117-120 стр.